

**AYOLLARDA KO'KRAK BEZI SARATONINI ERTA ANIQLASHDA ZAMONAVIY
YONDASHUV**

**СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К РАННЕМУ ВЫЯВЛЕНИЮ РАКА МОЛОЧНОЙ
ЖЕЛЕЗЫ У ЖЕНЩИН**

MODERN APPROACH TO EARLY DETECTION OF BREAST CANCER IN WOMEN

*Normatova Sh.A. - Central Asian Medical University
tibbiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi*

Parpiyeva O.R. - Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

E-mail: o.r.parpiyeva@pf.fdu.uz, tel.: +99890 536-24-45

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'krak bezi saratoni, uning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillar, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Farg'ona filialida 2018 yil davomida ko'krak bezida uchraydigan xavfli va xavfsiz o'sma kasalliklarini erta aniqlash va qiyosiy tashxislashda raqamli mammografiya hamda onkomarkerlarga tekshirilgan bemorlarning tekshiruv natijalari va tahlili, xulosalar to'g'risida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: saraton, gormon, esterogen, radiasiya, raqamli mammografiya, onkomarker, saraton oldi kasalliklari.

Аннотация: В данной статье рак молочной железы, факторы, обуславливающие его возникновение, раннее выявление опасных и доброкачественных опухолей молочной железы в 2018 году в Ферганском филиале Республиканского специализированного онкологического и радиологического научно-практического медицинского центра, результаты и анализ результатов обследования? анализа на цифровую маммографию и онкомаркеры, выводы описаны в сравнительной диагностике.

Ключевые слова: рак, гормон, эстроген, облучение, цифровая маммография, онкомаркеры, предраковых заболеваний.

Abstract: In this article, breast cancer, the factors causing its origin, early detection of dangerous and benign breast tumors in 2018 at the Fergana branch of the Republican Specialized Oncology and Radiology Scientific and Practical Medical Center and digital mammography and oncomarkers examination results and analysis, conclusions are described in comparative diagnosis.

Key words: cancer, hormone, estrogen, radiation, digital mammography, oncomarker, precancerous diseases.

Kirish. ko'krak bezi saratoni ayollar orasida uchraydigan eng ko'p va keng tarqalgan o'sma kasalliklari guruhiga kiradi. Ko'krak bezi saratoni kasalligi bilan kasallanish ko'proq 50 yoshdan oshgan, genetik kasallikka ega bo'lgan, ko'p spirtli ichimlik iste'mol qiladigan, farzand ko'rmagan, yoshi 30 dan oshganda ilk bor ona bo'lgan, farzandini ko'krak suti bilan boqmagan, estrogen gormonal dori vositalarini 1 yildan ko'p vaqt davomida qabul qilgan, radiatsiya ta'siriga uchragan ayollarda uchrashi olimlar tomonidan aniqlangan. Lekin so'nggi yillarda kasallik yosharib bormoqda [1].

Atmosferadagi radiasiya, oziq-ovqat mahsulotlarida kimyoviy vositalarning ko'pligi, gormonal buzilishlar, irsiy omillar, stresslar onkologik kasalliklarga sabab bo'lmoqda. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimi yaratilmagan deyishga asoslar yetarli. Misol uchun, ularning tarkibida texnik pal'ma moyining ishlatilishi qat'iy taqiqlangan, lekin buni aniqlaydigan mexanizmlar yo'lga qo'yilmagan. Vaholanki, ushbu mahsulot inson organizmi uchun g'oyat zararli bo'lib, hayotiy muhim organlarni ishdan chiqarishi bilan birga onkologik kasalliklarga sabab bo'ladi [2].

Jahonda sut bezi kasalligining alimentar profilaktikasini maxsuslashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini qo'llash orqali shakllantirishning yuqori samaradorligiga erishish maqsadida qator

ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada ayollarda ko'krak bezi saratoni rivojlanishining ijobiy va salbiy omillarini asoslash, kasallikning tibbiy-biologik va ijtimoiy-gigienik xavf omillarining o'rnini asoslashdan iborat. Ko'krak bezi saratonini oldini olish va davolashda maxsuslashtirilgan mahsulotlarning samaradorligini, ko'krak saratoniga chalingan ayollar ovqat rasionini korreksiyalash va yangi davolovchi ovqat mahsulotlarining foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan sog'lomlashtiruvchi chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va gigienik me'yorlar yaratish kabilar alohida ahamiyat kasb etadi.

Aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sog'lom ovqatlanish orqali aholi orasida kasallanish darajasini kamaytirish va uzoq-umr ko'rish darajasini oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda sog'lom ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda [3].

Ko'krak bezi xavfli o'sma kasalligi hozirgi kunda dunyo bo'yicha o'sma kasallar ichida birinchi o'rinda turadi. Bu kasallik bilan bemorlar kechki bosqichda murojat qilib kelayotganliklari onkologiyada eng katta muammolardan biridir. Ko'krak bezi xavfli o'sma kasalligi ertangi bosqichlarda bemorlarda klinik simptomlarsiz kechishi tufayli ayollar kechiktirib murojat qilmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan ayollarning ovqatlanishini o'rganish orqali zararli mahsulotlar iste'molini kamaytirib, to'g'ri, sifatli va foydali mahsulotlar iste'moli yordamida bemorlarni to'liq sog'ayib ketishiga zamin yaratish hamda to'g'ri va foydali ovqatlanish, sog'lom turmush tarziga rioya qilish orqali ayollarda ko'krak bezi saratoniga chalinish xavfini kamaytirish.

Ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan bemorlar o'limiga asosiy sabab kasallikni kech bosqichda aniqlanishidir. Ko'krak bezida uchraydigan xavfli va xavfsiz o'sma kasalliklarini erta aniqlash va qiyosiy tashxislashda raqamli mammografiya [4] hamda onkomarkerlarga tekshirishning ahamiyatini o'rganish.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Farg'ona filialida 2018 yil davomida 757 nafar ayollarda profilaktik raqamli mammografiya tekshiruvini o'tkazildi. O'tkazilgan tekshiruvlardan 283 ta (37%) saraton kasalligi, saraton oldi kasalligi 124 ta (16 %) aniqlandi. RIO va RIATM FF da 2018 yil davomida 309 ta sut bezi saratoni kasalligi «D» nazoratiga olingan. Aniqlangan bemorlardan 9 (2,9) tasida raqamli mammografiya o'tkazish imkoni bo'lmadi. O'tkazilgan profilaktik raqamli mammografiya tekshiruvidan 17 (2,2%) tasida saraton kasalligi diagnostikasi uchun yetarli ma'lumot olinmagan.

2018 yil davomida Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Farg'ona filiali stasionar sharoitidagi 50 nafar onkomarkerlarga tekshirilgan bemorlarda tahlil olib borildi. Ular 19 yoshdan 75 yoshgacha bo'lgan bemorlar bo'lib, ularning o'rtacha yoshi $44,2 \pm 1,9$ ni tashkil etadi. Ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan bemorlarda SA 15-3, REA va SA 125 maxsus onkomarkerlarga tekshirildi.

Tekshirish davomida ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan bemorlarni kasallik bosqichi bo'yicha 4 ta guruhga bo'lindi va ularni tekshirilgan onkomarkerlar natijalariga ko'ra tahlil qilindi. Unga ko'ra, I-II A bosqichli 9 ta (18%) bemorlarda davodan oldin onkomarkerlar: SA 15-3 56 ± 05 YeD/ml; REA 16 ± 03 ng/ml; SA 125 $49,8 \pm 06$ YeD/ml ga teng. II B-bosqichli 17 ta (34%) bemorlarda davodan oldin onkomarkerlar: SA 15-3 79 ± 05 YeD/ml; REA 19 ± 09 ng/ml; SA 125 $48,4 \pm 05$ YeD/ml ga teng. III-bosqichli 18 ta (36%) bemorlarda davodan oldin onkomarkerlar: SA 15-3 170 ± 07 YeD/ml; REA 65 ± 03 ng/ml; SA 125 $107,8 \pm 05$ YeD/ml ga teng. IV-bosqichli 6 ta (12%) bemorlarda davodan oldin onkomarkerlar: SA 15-3 332 ± 04 YeD/ml; REA 179 ± 07 ng/ml; SA 125 $157,5 \pm 03$ YeD/ml ga teng.

Natija va muhokama. O'tkazilgan 757 ta tekshiruvlardan, 283 ta (37%)sida saraton kasalligi, 124 ta (16%)sida saraton oldi kasalliklari aniqlandi. Saraton kasalligi aniqlangan 283 nafar ayollarni o'rtacha yoshi $40 + 0,6$ ga teng. Ushbu bemorlarda I- bosqich 4 ta (1,4%), II-bosqichda 183 ta (64,7 %), III-bosqichda 85 ta (30,0%) va IV-bosqichda 11 ta (3,9 %) aniqlandi. Raqamli mammografiya afzalligi saraton oldi kasalligi bilan aniqlangan bemorlarda xirurgik davo o'tkazilganda, 53 ta sektoral rezeksiya amaliyotidan so'ng 11 ta II-bosqich, 1 ta I-bosqich bilan gistologik verifikasiya bilan «D» nazoratga olingan. RIO va RIATM FF 2018 yil davomida I-bosqich bilan saraton kasalligi aniqlanishi

oshgan. O'tkazilgan profilaktik raqamli mammografiya tekshiruvidan 17 (2,2%) tasida saraton kasalligi diagnostikasi uchun yetarli ma'lumot bermagan. 9 (2,9%) nafar bemorda tekshiruv o'tkazish imkoni bo'lmagan.

Onkomarkerlarga tekshirish natijalariga ko'ra, I-II A bosqichli 9 ta (18%), II B-bosqichli 17 ta (34%), III-bosqichli 18 ta (36%), IV-bosqichli 6 ta (12%) bemorlarda davodan oldin onkomarkerlar yuqori ko'rsatkichlarda aniqlandi. [5]

Xulosalar. Ko'krak bezi saratoni kasalliklarini erta aniqlashda raqamli mammografiya tekshiruv o'rni yuqori bo'lib, ushbu tekshiruv usuli saraton kasalligida 94,3% t o'g'ri ma'lumot berishi aniqlandi. Ushbu tekshiruv usuli nafaqat saraton kasalligi balki saraton oldi kasalliklarini ham erta aniqlash va ularni oldini olishda ahamiyati katta ekanligi aniqlandi.

Onkomarkerlarga tekshirilgan bemorlarning tekshiruv natijalari tahlil qilinganda kasallik erta bosqichlarida (I-IIA, IIB) kelgan bemorlarga nisbatan onkomarkerlar ko'rsatkichi kechki bosqichlarda (III, IV) kelgan bemorlarda 5 va 6 barobargacha yuqori ko'rsatkichlarda ekanligi aniqlandi. Bu kasallikning zo'rayganligi hamda atrofidagi to'qimalarga tarqalib ketganligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.R.Parpieva, E.Muydinova, G.Safarova //Breast cancer// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.Vol. 11, Issue 11, November 2021. 482-485 pages.
2. Парпиева Одинахон Рахмановна //КЎКРАК БЕЗИ САРАТОНИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11| Issue-3| 2023. 460-468 pages.
3. Parpieva Odinaxon Rakhmanovna //Nutrition and diet in breast cancer// Texas Journal of Medical Science. Vol. 7. 04-2022. 27-30 pages.
4. Васильев Д.А., Зайцев А.Н., Берштейн Л.М. Маммографическая плотность молочных желез и определяющие ее факторы в свете повышенного онкологического риска. Опухоли женской репродуктивной системы 2011;(3):15—22.
5. И.В. Высоцкая [и др.] // Опухолевые маркеры рака молочной железы// Маммология. - 2005. -№ 1. - С.61-65.
6. Odinakhan Rakhmanovna Parpieva, Odinakhan Odilovna Djalalidinova //Reproductive Health Issues// Texas Journal of Medical Science. 10-11-2022. 58-61 pages.